

**“VATAN TAYANCHI” HAKKATINING TA’LIM TASHKILOTIDAGI O’RNI VA
UNING BO’LAJAK OFITSERLARNI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI**

Yarmatov Akbar Normurotovich
Magistranti O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatining umumta’lim tashkilotlaridagi o‘rni va uning bo‘lajak ofitserlarni tayyorlashdagi ahamiyati pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Maqolada harakatning yosh avlod ongi va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdagi ta’siri, vatanparvarlik, fidoyilik, intizom hamda mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, “Vatan tayanchi” harakatining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, harbiy tarbiya, bo‘lajak ofitser, yoshlar siyosati, “Vatan tayanchi”, milliy g‘oya, psixologik tayyorgarlik.

Introduction

Kirish: Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mamlakatning harbiy salohiyati zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan birga botir askar va ofitserlar bilan, ularning jismoniy va ma’naviy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, milliy armiyamizning chinakam qudrati bu avvalo sizlar – o‘z hayotini Vatan himoyasidek muqaddas ishga bag‘ishlagan jonkuyar va fidoyi insonlardir,” [1].

Aynan shu maqsadda 2022 - yil 2 - martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori[2] bilan “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etildi. Ushbu harakat yoshlarni Vatanga muhabbat, fuqarolik burchiga sadoqat, jismoniy va ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashning tizimli shakliga aylandi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bo‘lajak ofitserlarni tayyorlash jarayonida maktab davridan boshlab harbiy-vatanparvarlik tarbiyasimexanizmlarini kuchaytirish — mamlakat mudofaa salohiyatining barqarorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda quyidagi ilmiy uslublardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – “Vatan tayanchi” harakatining huquqiy asoslari, maqsad va vazifalari bo‘yicha rasmiy manbalar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil – xalqaro tajriba (Buyuk Britaniyadagi Combined Cadet Force (CCF) “Yoshlar tashkiloti”, AQShdagi Junior ROTC, Isroildagi “Gadna” “Yoshlar korpusi” tashkilotlar) bilan solishtirildi.

Pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma – “Vatan tayanchi” otryadlari a’zolari o‘rtasida o‘tkazilgan suhbat va fikrlar asosida amaliy xulosalar shakllantirildi.

Psixologik tahlil – yoshlarning motivatsiyasi, o'zini anglash va harbiy kasbga ijtimoiy tayyorgarlik darajasi o'rganildi.

Asosiy qism: “Vatan tayanchi” harakatining tashkil etilish asoslarini o'rganish jarayonida:

“Vatan tayanchi” harakati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida tashkil etilgan davlat muassasasi hisoblanadi. Harakatning asosiy vazifasi yoshlarni vatanparvarlik, intizom va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalashdir.

10–11-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan 20 nafarlik otryadlar har bir umumta'lim maktabida faoliyat yuritadi. Ularning rahbari “Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik” fani o'qituvchisi hisoblanadi.

Ushbu tashabbusning huquqiy asosi sifatida 2022 yil 2 martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida belgilangan bo'lib, unda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish vazifalari belgilab berilgan.

Harakatning pedagogik-psixologik ahamiyati - pedagogik nuqtayi nazardan “Vatan tayanchi” yoshlarning shaxsiy rivojlanish jarayonida quyidagi natijalarni beradi:

Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish-harbiy xizmat, davlat xavfsizligi va fuqarolik burchi haqida nazariy tushunchalar beriladi.

Amaliy tayyorgarlik -harbiy mashg'ulotlar, sport musobaqalari, taktik o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy tayyorgarlik mustahkamlanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya-vatanga sadoqat, intizom, rahbarlik va jamoaviy ishlash madaniyati shakllanadi.

Psixologik jihatdan esa, “Vatan tayanchi” harakatida qatnashayotgan yoshlar o'zini jamiyatda zarur shaxs sifatida his qiladi, liderlik sifatleri rivojlanadi, o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Bu esa ularni bo'lajak ofitserlar sifatida shakllantirishda muhim omildir.

Bo'lajak ofitserlarni tayyorlashdagi o'rni - bu nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-psixologik jarayon. “Vatan tayanchi” bu yo'lda birlamchi ijtimoiy platforma sifatida xizmat qiladi. Quyidagi yo'nalishlarda uning ahamiyati yuksak:

Kasbiy motivatsiya -harbiy kasbga qiziqish uyg'otadi, ofitserlik faoliyatining ijobiy qirralarini namoyon etadi.

Mas'uliyat va intizom -harbiy xizmatga xos qat'iyatlilik, aniqlik, jamoaviy intizomni o'rgatadi.

Psixologik tayyorgarlik -stressga bardoshlilik, tezkor qaror qabul qilish, shaxslararo muloqotda aniqlik fazilatlarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy rag'bat -harakat a'zolari uchun oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirishda qo'shimcha 5% ball, tavsiyanoma va grant imtiyozlari berilishi ularning kasbiy yo'nalishini mustahkamlaydi.

Bularning barchasi yoshlarning o'z kasbiy yo'lini to'g'ri tanlashida, Vatanga sadoqat ruhida xizmat qilish istagini kuchaytirishda pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba o'rganilganda quyidagilar aniqlandi.

Masalan, Buyuk Britaniyada Mudofaa vazirligi homiyligida faoliyat yuritadigan Combined Cadet Force (CCF) “Yoshlar tashkiloti”[3] 13–18 yoshdagi o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda jalb qilgan holda, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan. Ushbu

yoshlar tashkiloti asosan xususiy maktablar, shuningdek 2012 yildan davlat maktablarida ham joriy etilmoqda, mamlakat bo'ylab 40,000 dan ortiq kadet CCFda qatnashmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida Mudofaa vazirligi qoshida Junior ROTC (Zahiradagi kichik ofitserlarni tayyorlash korpusi)[4] dasturi faoliyat yuritadi va unda o'rta maktablarning (high school) 9–12-sinf o'quvchilari ixtiyoriy ishtirok etadi. Bugungi kunda AQSh bo'yicha JROTC dasturida o'quvchilarning soni taxminan 490,000 kadetni tashkil etadi.

Isroilda yoshlarni armiyaga xizmatga chaqirishgacha harbiy-jismoniy tayyorlash ishlari Ta'lim vazirligidagi "Gadna" («Yoshlar korpusi») [5]harbiylashtirilgan yoshlar tashkiloti orqali amalga oshiriladi. 14–18 yoshli yoshlar uchun harbiy tayyorgarlik lagerlari mavjud bo'lib, ushbu lagerlarda yoshlar harbiy intizom, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik haqida bilim oladi. Katta sinf o'quvchilari dala harbiy yig'inlariga jalb etiladi.

O'zbekistonning "Vatan tayanchi" harakati ushbu tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos pedagogik modelni yaratdi. Bu model yoshlarning nafaqat harbiy sohada, balki liderlik, mas'uliyat, jamoada ishlash ko'nikmalarida ham rivojlanishini ta'minlaydi.

Natijalar va muhokama: ilmiy olimlar tomonidan o'tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatganki, "Vatan tayanchi" harakati - o'quvchilarning 78 foizida harbiy kasbga qiziqishni oshirgan, 85 foiz yoshda vatanparvarlik va mas'uliyat hissini mustahkamlagan, 70 foiz a'zolar jamoaviy ishlash, rahbarlik va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantirgan[6].

Bu natijalar "Vatan tayanchi" harakati bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayonida psixologik va pedagogik tayyorgarlik bosqichi sifatida samarali ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, harakat yoshlarni ijtimoiy faol, mas'uliyatli va sadoqatli fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa: "Vatan tayanchi" harakati — O'zbekistonda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning strategik modeli bo'lib, bo'lajak ofitserlarni tayyorlashning ilk bosqichini tashkil etadi. U nafaqat harbiy kasbga tayyorlov tizimi, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun ijtimoiy maktabdir.

Tavsiyalar:Harakat a'zolari uchun zamonaviy metodik,o'quvqo'llanmalar ishlab chiqish,psixologik tayyorgarlik dasturlarini mustahkamlash, harbiy qismlar va muassasalar, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylar bilan integratsion loyihalarni kengaytirish, "Vatan tayanchi" otryadlari faoliyatini muntazam ilmiy monitoring qilish, xalqaro tajriba asosida pedagogik kadrlar malakasini oshirish.

Shunday qilib, "Vatan tayanchi" harakati — yoshlarning ongida Vatanga muhabbat, fidoyilik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish orqali O'zbekistonning mudofaa salohiyatini mustahkamlovchi muhim pedagogik tizimdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi <https://president.uz/oz/lists/view/5820>.

-
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 martdagi ““Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-150-sonli qarori.
 3. https://en.wikipedia.org/wiki/Combined_Cadet_Force
 4. https://en.wikipedia.org/wiki/Junior_ReserveOfficers%27_Training_Corps
 5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D0%B0%D0%B4%D0%BD%D0%B0_\(%D0%98%D0%B7%D1%80%D0%B0%D0%B8%D0%BB%D1%8C\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D0%B0%D0%B4%D0%BD%D0%B0_(%D0%98%D0%B7%D1%80%D0%B0%D0%B8%D0%BB%D1%8C))
 6. Madaliyev R. “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari” – O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona: “Farg‘ona davlat universiteti”, 2024. – B.180-bet.